IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVIDA AYOLLARNING ROLI

Abdullayeva Dinora Nuriddinovna

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar:

t.f.f.d.(PhD) **Ro'ziyeva D.M.**

Annotatsiya: Mazkur maqolada so'nggi yillarda davlat boshqaruvida ayollarning ishtiroki hamda boshqaruv sohasidagi ularning ulushini oshirishga qaratilgan islohotlar shuningdek, qarorlarning ijrosi va bu bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar samaradorligi haqida yozilgan.

Kalit so'zlar: Jamiyatda ayollar nufuzi, gender siyosat, boshqaruvda ayollar ulushi, Tanzila Narbayeva, BMT Bosh Assambleyasi, qilingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, gender muammolar.

Ayol e'zozga, ehtiromga loyiq bo'lgan mo'tabar zotdir. Ayollar vatanimiz taraqqiyoti, oila va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bugungi kunda ayollarimizga ko'plab imkoniyatlar yaratilib, ularga dunyo eshiklari ochilmoqda. Jamiyatimizda ayollarning nufuzini oshirish, haq-huquqlarini himoya qilish barcha sohalarda faol ishtirokini ta'minlash maqsadida Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev hamda hukumatimiz tomonidan ko'plab chora-tadbirlar qonun, qaror, farmon va farmoyishlar qabul qilinmoqda.

Bugungi kunga kelib gender tenglik siyosati jamiyat hayotida eng muhim ahamiyatga molik masalalardan biriga aylanmoqda. Aynan shu tenglik masalasi bo'yicha yunon olimi Antifont o'z asarlaridan birida shunday deydi: "Tabiat barchani ayollarni ham erkaklarni ham teng qilib yaratdi, lekin teng bo'lmagan qonunlarni odamlarning o'zlari chiqarishadi".Shunday ekan jamiyatimizda ayollar ham, erkaklar ham teng huquqlidir. Xususan, ijtimoiy, siyosiy huquqlarda ham, yoki o'z fikrini erkin bayon qilish borasida ham ayollar va erkaklar tengdirlar. O'z fikrini erkin bayon qilish borasida 1791-yil Olimpiya De Guj tomonidan tayyorlangan fuqarolik va ayol huquqi deklaratsiyada ilk bor ayollarning erkin fikrlash va o'z fikrini bildirish huquqiga ega ekanligi e'tirof etilgan.

1948-yil BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida erkaklar va ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, Deklaratsiyaning 1-moddasida "Hamma odamlar o'z qadr-qimmati hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar", - deya tarif berilgan.

So'nggi 4 yil ichida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishish jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ularning teng ishtirok etishini ta'minlash, xotin-qizlarni ijtimoiy, huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, shuningdek xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Gender tenglik masalasi davlat siyosati darajasiga ko'atirilib, sohaga oid 25 ta qonunchilik hujjatlari qabul qilindi.[1]

Xususan, 2019-yil 2-sentabrda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risi"da O'zbekiston Respublikasining 562-sonli Qonuni qabul qilindi.[2]

Ushbu qonun ming yillardan buyon jamiyatda ayol va erkak o'rtasidagi tengsizlik va uni hal etish masalasi hamisha dolzarb bo'lib kelgan huquqiy munosabatlarning nechog'lik dolzarbligiga qaratilgan qonundir. Jumladan qonunning 1-moddasida qayd etilganidek, qonunning maqsadi xotin-qizlar va erkaklar uchun

teng huquq hamda imkoniyatlarni ta’minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir.

Shuningdek, qonunda gender tushunchasi jam qayd etilgan bo’lib, unga ko’ra gender – xotin-qizlar va erkaklar o’rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatuning barcha sohalarida shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta’lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo’ladigan ijtimoiy jihati ko’rsatilgan. Demak, gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarini ifodalamaydi, balki, har ikki jins vakillarining o’z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berish kerakligini ilgari suradi. Aynan rivojlangan jamiyatning talablaridan biri bu erkak va ayol huquqlari tengligining ta’minlashidadir. Shularni hisobga olgan holda keyingi yillardagi O’zbekiston Respublikasining gender siyosati quyidagilarga qaratiladi:

- Ijtimoiy-siyosiy hayotda erkak va ayollarning ishtirok etishida teng imkoniyatlar va huquqlarni yaratish;
- Ayol va erkaklarning iqtisodiyot, bandlik va mehnat migrantlati huquqlarini himoya qilishda gender tengligini ta’minlash;
- Barcha uchun adolatli va sifatli ta’limni ta’minlash;
- Barcha xotin-qizlar uchun gender tengliginu ta’minlash;
- Zo’ravonlikdan himoyalash, odam savdosiga chek qo’yish;
- Barcha erkak va ayollar uchun ijtimoiy himoya, sog’lom turmush tarzini ta’minlash;
- Milliy gender statistikasini rivojlantirish;
- Rivojlantirish va byudjetlashtirishda gender masalasini inobatga olish;
- OAVda gender muammolarining keng yoritilishini ta’minlash;
- Barcha uchun xavfsiz ekologik muhitni ta’minlash masalalariga xotin-qizlarni yanada kengroq jalb qilish;

Yuqoridagilarni ustuvor yo’nalishlarni samarali amalga oshirish maqsadida quyidagi dolzarb vazifalarni bajarish zarur deb hisoblaymiz:

- Xotin-qizlarni qo’llab quvvatlashga doir davlat siyosatining samarali amalga oshirilishini ta’minlash;
- Xotin-qizlar huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish hamda ularning mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi roli va faolligini yanada oshirish;
- Yordamga muhtoj bo’lgan va og’ir ijtimoiy axvolga tushib qolgan xotin-qizlarlarning shu jumladan, nohironligi bo’lgan ayollarning muammolarini o’z vaqtida aniqlash;
- Ehtiyojmand xotin-qizlarning manzili ro’yxatlarini tuzish, ularga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko’rsatishning samarali usul va vositalaridan keng foydalanish;
- Barcha hududlarda xotin-qizlarning bandligini to’la-to’kis ta’minlash imkonini oshiradigan maxsus tizim yaratish va uning samarali ishlashini yo’lga qo’yish;
- Xotin-qizlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni ayniqsa qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish masalalarida har tomonlama qo’llab-quvvatlash;
- Xotin-qizlar o’rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, 1-navbatda, huquqbuzarlikka moyilligi bo’lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish;
- Jazoni ijro etish muassasalarida ozod qilingan xotin-qizlarni amalga oshirish;

- Xotin-qizlar bilan bog'liq muammolarni yechishda davlat organlari va fuqarolik jamiyati institutlari bilan yaqin hamkorlikni ta'minlash borasida ishlarni tizimli tarzda olib borish.[3:247]

Shunday qilib, tenglik masalasiga, xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirishga juda katta ahamiyat qaratilib kelinmoqdadir. Demokratiya, tenglik hukm surayotgan, ayollarning huquqlari e'tirof etilayotgan O'zbekiston Respublikasida har bir ayol o'z haq-huquqlarini anglab, o'z sohasi bo'yicha mytaxasis kadr, xodim, ishboshi, rahbar kabi lavozimlarda o'z ish faoliyatlarini yuritmoqda.

Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning o'rni va mavqeini yanada mustahkamlash – islohotlarimizning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib qolaveradi. Biz mamlakatimizda istiqomat qilayotgan 17 milliondan ziyod opa-singillarimiz, qizlarimiz, onaxon va momolarimizga munosib sharoit yaratib berish uchun barcha imkomiyatlarini ishga solishimiz lozim".[4:249]

Bugungi kunda mamlakatimizda mehnat bilan band aholining 45 % ini xotin-qizlar tashkil etadi. 2022-yilga ko'ra boshqaruv tizimida ayollarning ulushi 33% ga yetdi. 1.5 mingga yaqin ayollar rahbarlik lavozimlarida ishlamoqda. Bu boradagi salohiyatni yanada oshirish maqsadida 6 mingdan ziyod faol xotin-qizlardan iborat kadrlar zahirasi shakklantirildi.[5:47]

Shu tariqa bugun boshqaruv sohasida ayollarning ulushi kundan-kunga oshib bormoqda. Xususan Respublikamizning 6 ta tumanida boshqaruvni ayollar qo'lga olib, hokim lavozimida o'z faoliyatlarini olib bormoqda. Yana bunga yorqin misol qilib Tanzila Narbayevani ham e'tirof etishimiz mumkin. Tanzila Narbayeva o'z ish faoliyatini dastlab 1974-yil maktabda Yoshlar yetakchisi lavozimidan boshlagan. Bugungi kunda esa 2019-yil 21-iyundan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senat Raisi lavozimida ish yuritmoqda.[6]

Bundan tashqari aytib o'tishimiz joizki, 2019-yil 22-dekabrda o'tkazilgan Oliy Majlis Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar deputatlar saylovlari natijalariga ko'ra 150 ta saylov okrugidan 750 nafar nomzod rozyxatga olingan bo'lib, ularning 41,4 % ini ayollar tashkil etgan.Parlament quyi palatisa 48 nafar ayol deputat bo'lsa, yuqori palatasida 24 ayol senatorlar ishlab kelmoqda. Qoraqalpoq Respublikasi Jo'qori Kengasi, Xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar kengashlariga yangi saylangan deputatlarning 247 nafari, tuman va shahar kengashlarida 1422 nafari ayollar hisoblanib, ular o'z ish faoliyatlarini yuritib kelmoqda.[7]

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bugun jamiyatda ayollarning o'rni balanddir. O'zbekistonda olib borilayotgan davlat islohotlarining asosiy maqsadi ham jamiyatimizda ayollarning nufuzini oshirish, ularning haq-huquqlarini himoya qilish, imkoniyatlarini kengaytirish, boshqaruv sohasida ularning o'rnini oshirishga qaratilgandir. Bu islohotlarning natijasi sifatida ko'rishimiz mumkinki, ayollarimiz barcha sohada bugun liderkikni qo'lga olmoqda. Boshqaruv deysizmi, biznes, ta'lim, tibbiyotmi qo'yinki, har jabhada eng yuqori natijalarni qo'lga kiritmoqda. Yurtboshimiz tomonidan yaratilayotgan imkoniyatlaridan oqilona foydalanib, biz yoshlarga bildiralayotgan ishonchlarini oqlab, kun kelib lider ayollar safidan biz ham o'z o'rnimizni egallaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. SQ-297-IV-сон 28.05.2021. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida tog'risidagi qonun. https://lex.uz/docs/-5466673
2. O'RQ-562-сон 02.09.2019. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida qonun. https://lex.uz/docs/-4494849
3. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2021, 247-bet.

4. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2021, 249-bet.
5. Shavkat Mirziyoyev. Yangi O'zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi. Toshkent, O'zbekiston nashriyoti, 2022, 47-bet.
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Tanzila_Norboyeva
7. https://xabar.uz/uz/jamiyat/davlat-boshqaruvida-xotin-qizlarning-ulushi-qancha